

## SUYUQLIKLARDA ELEKTR TOKI. ELEKTROLIZ HODISASI. FARADEYNING BIRINCHI QONUNI.

Tolegenova Madina Tolegenovna

Nizomiy nomidagi TDPU Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi

Yo'ldoshev Nurbek Egamberdi o'g'li

Mustafayeva Munisa Ulug'bek qizi

Javliyeva Ismigul Iskandar qizi

3-kurs talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7492911>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola suyuqliklardan elektr toki o'tishi va elektroliz hodisasi, M.Faradeyning elektroliz hodisasi uchun birinchi qonuni, elektrodda ajralib chiquvchi modda massasi singarilar haqida fikr-mulohaza yuritadi.

**Kalit so'z va iboralar:** elektr toki, elektroliz, M.Faradey, elektrod, massa, modda, suyuqliklar, distillangan suv, mineral yog 'lar, ishqorlar.

### ЭЛЕКТРИЧЕСКИЙ ТОК В ЖИДКОСТИ. ЯВЛЕНИЕ ЭЛЕКТРОЛИЗА.

#### ПЕРВЫЙ ЗАКОН ФАРАДЕЯ.

**Аннотация.** В этой статье обсуждается прохождение электричества через жидкости и явление электролиза, первый закон М. Фарадея для явления электролиза и масса вещества, выделяющегося на электроде.

**Ключевые слова и фразы:** Электрический ток, электролиз, М. Фарадей, электрод, масса, вещество, жидкости, дистиллированная вода, минеральные масла, щелочи.

### ELECTRIC CURRENT IN LIQUIDS. ELECTROLYSIS PHENOMENON.

#### FARADAY'S FIRST LAW.

**Abstract.** This article discusses the flow of electricity through liquids and the phenomenon of electrolysis, M. Faraday's first law for the phenomenon of electrolysis, and the mass of matter released at the electrode.

**Key words and phrases:** Electric current, electrolysis, M. Faraday, electrode, mass, substance, liquids, distilled water, mineral oils, alkalis.

Har bir inson elektr tokining ta'rifi bilan tanish. U zaryadlangan zarralarning yo'naltirilgan harakati sifatida ifodalanadi. Turli muhitlarda bunday harakat fundamental farqlarga ega. Ushbu hodisaning asosiy misoli sifatida suyuqliklarda elektr tokining oqimi va tarqalishini tasavvur qilish mumkin. Bunday hodisalar turli xil xususiyatlar bilan ajralib turadi va har xil suyuqliklar ta'sirida bo'limgan normal sharoitda sodir bo'ladigan zaryadlangan zarrachalarning tartibli harakatidan jiddiy farq qiladi.

Elektr tokini o'tkazish jarayoni metall qurilmalar (o'tkazgichlar) yordamida amalgalashiga qaramay, suyuqliklardagi oqim ma'lum bir sababga ko'ra bunday atom va molekulalarni olgan yoki yo'qotgan zaryadlangan ionlarning harakatiga bog'liq. Bunday harakatning ko'rsatkichi ma'lum bir moddaning xususiyatlarining o'zgarishi bo'lib, u yerda ionlar o'tadi. Shunday qilib, turli suyuqliklarda oqim hosil bo'lishining o'ziga xos kontseptsiyasini shakllantirish uchun elektr tokining asosiy ta'rifiga tayanish kerak. Aniqlanishicha, manfiy zaryadlangan ionlarning parchalanishi ijobjiy qiymatlarga ega bo'lgan oqim manbai hududiga harakatlanishiga yordam beradi. Bunday jarayonlarda musbat zaryadlangan ionlar teskari yo'nalishda - manfiy oqim manbaiga o'tadi.

Suyuq o'tkazgichlar uchta asosiy turga bo'linadi: yarimo'tkazgichlar; dielektriklar; o'tkazgichlar.

Odatdagi sharoitda ayrim suyuqliklar elektr tokini o'tkazsa, ayrimlari esa o'tkazmaydi. Toza suyuqliklar, distillangan suv, kerosin, mineral yog'lar elektr tokini o'tkazmaydi. Tuzlar, kislotalar, ishqorlar elektr tokini yaxshi o'tkazadi. O'zidan elektr tokini o'tkazuvchi suyuqliklar elektrolitlar deb ataladi.

Ionlar orasida Kulon kuchi tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish ionli bog'lanish deb ataladi.

Kimyo darslaridan ma'lumki, modda atom va molekulalari bir-biri bilan uch xil bog'lanishda bo'ladi: metall bog'lanish, kovalent bog'lanish va ionli bog'lanish. Ionli bog'lanishga misol qilib osh tuzi — natriy xlorid ( $\text{NaCl}$ )ni keltirish mumkin.


Kimyoviy elementlar davriy sistemasidagi atomning nomeri elementning qobiqlaridagi elektronlar sonini ifodalaydi

**Периодическая таблица Д. И. Менделеева**

Период	Ряд	ГРУППЫ ЭЛЕМЕНТОВ								Обозначение элемента	Атомный номер
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII		
1	1	(II)						H 1 Водород	He 2 Гелий	4.0026	
2	2	Li 3 Литий	Be 4 Бериллий	B 5 Бор	C 6 Углерод	N 7 Азот	O 8 Кислород	F 9 Фтор	Ne 10 Нейон	20.179	
3	3	Na 11 Натрий	Mg 12 Магний	Al 13 Алюминий	Si 14 Кремниев	P 15 Фосфор	S 16 Сера	Cl 17 Хлор	Ar 18 Аргон	39.948	
4	4	K 19 Калий	Ca 20 Кальций	Sc 21 Скандий	Ti 22 Титан	V 23 Ванадий	Cr 24 Хром	Mn 25 Марганец	Fe 26 Железо	27.0320	Co 28 Кобальт
	5	Cu 29 Медь	Zn 30 Цинк	Ga 31 Галлий	Ge 32 Германий	As 33 Мышьяк	Se 34 Селен	Br 35 Бром	Kr 36 Криптон	46.0671	Ni 57 Никель
	6	Rb 37 Рубидий	Sr 38 Стронций	Y 39 Иттрий	Zr 40 Цирконий	Nb 41 Ниобий	Mo 42 Молибден	Tc 43 Технеций	Ru 44 Рутений	45.0205	Rh 46 Родий
	7	Ag 47 Серебро	Cd 48 Цадий	In 49 Индий	Sn 50 Сурьма	Sb 51 Сурьма	Te 52 Теллурий	I 53 Йод	Xe 54 Ксено	76.9044	Pd 77 Палладий
	8	Cs 55 Цезий	Ba 56 Барий	La* 57 Лантан	Hf 72 Гафний	Ta 73 Тантал	W 75 Вольфрам	Re 76 Рентген	Os 77 Оsmий	78.992	Ir 78 Иридий
	9	Au 79 Золото	Hg 80 Ртуть	Tl 81 Таллий	Pb 82 Свинец	Bi 83 Бисмут	Po 84 Полоний	At 85 Астат	Rn 86 Радон	196.966	Pt 196.966 Платина
	10	Fr 87 Франций	Ra 88 Радий	Rb 89 Рубидий	Ac** 90 Актиниев	Rf 104 Риериевий	Dy 105 Дубий	Sg 106 Сибирь	Bh 107 Борий	109 Метастабильный	Mt 110 Диридиум
	11	Rg 111 Рентгениев	Cn 112 Клеровиан	Nh 113 Нихоний	Fl 114 Флерий	Mc 115 Миссисипий	Lv 116 Ливерморий	Ts 117 Теннесис	Og 118 Огинсон	125 Метастабильный	Ds 126 Диодим


58 Ce 140.19 Лантан	59 Pr 140.907 Пресварий	60 Nd 144.94 Нодий	61 Pm 147.94 Прометий	62 Sm 150.90 Самарий	63 Eu 151.98 Европий	64 Gd 157.26 Гадолиний	65 Tb 168.924 Тербий	66 Dy 162.50 Диодим	67 Ho 164.930 Холмий	68 Er 167.26 Эрбий	69 Tm 168.934 Тиман	70 Yb 173.04 Иттербий	
50 Th 232.089 Торий	51 Pa 231.08 Прантуний	52 U 238.03 Уран	53 Np 237.08 Нептуний	54 Pu 244.08 Плутоний	55 Am 243.10 Америций	56 Cm 247.10 Калифорний	57 Bk 249.10 Берклий	58 Cf 252.10 Калифорний	59 Es 251.10 Эстиниев	60 Fm 257.10 Фермы	61 Md 257.10 Медиев	62 No 255.10 Нобелий	63 Lr 256.10 Лоуренсий

D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasidan foydalanish shu joyida o'rini bo'ladi. Natriy (Na) atomida 11 ta elektron bo'lib, ulardan 1 tasi tashqi orbitada bo'ladi. Xlor (Cl) atomida esa 17 ta elektron bo'lib, ulardan 7 tasi tashqi orbitada aylanadi (rasmida ko'rsatilgan).




Kimyoviy elementlar davriy sistemasidagi barcha elementlarning alohida olingan atomi elektr neytraldir. Chunki, atom yadrosidagi musbat zaryadli protonlar nechta bo'lsa, shu atom

yadrosining atrofida aylanib yurgan manfiy zaryadli elektronlar soni ham shuncha bo‘ladi. Shunga o‘xhash Na va Cl atomlari alohida olinganda elektr neytraldir. Xlor atomining tashqi elektron qobig‘i to‘lishi uchun 1 ta elektron yetishmaydi. Shu sababli xlor va natriy atomlari bir-biriga yaqinlashganda elektronlar almashishi yuz beradi. Xlor atomi natriy atomining tashqi elektron qobig‘idan 1 ta elektronni tortib oladi (1-b rasm).




Natijada xlor atomi manfiy zaryadli xlor ioniga ( $\text{Cl}^-$ ), natriy atomi esa musbat zaryadli natriy ioniga ( $\text{Na}^+$ ) aylanib qoladi. Bu jarayonni quyidagi tengliklar bilan ifodalash mumkin:  $\text{Na} - e = \text{Na} + \text{Cl} + e = \text{Cl}$  – Turli ishoraga ega bo‘lgan natriy va xlor ionlari bir-biri bilan Kulon kuchi bilan tortishishib,  $\text{NaCl}$  kristall panjarasini hosil qiladi (116-rasm)



muhitlarda elektr toki Ionlar orasida Kulon kuchi tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog‘lanish ionli bog‘lanish deb ataladi.

Odatdagi sharoitda ayrim suyuqliklar elektr tokini o‘tkazsa, ayrimlari esa o‘tkazmaydi. Toza suyuqliklar, distillangan suv, kerosin, mineral yog‘lar elektr tokini o‘tkazmaydi. Tuzlar, kislotalar, ishqorlar elektr tokini yaxshi o‘tkazadi. O‘zidan elektr tokini o‘tkazuvchi suyuqliklar elektrolitlar deb ataladi


Ba’zi suyuqliklar elektr tokini o‘tkazishi, boshqalari esa o‘tkazmasligi mumkin. Suyuqliklarning elektr tokini o‘tkazishi yoki o‘tkazmasligini



rasmda tasvirlangan oddiy asbob yordamida aniqlash mumkin. Bu asbob, asosan, shisha idish va unga tushirilgan ikkita ko‘mir sterjen — elektrodlardan iborat. Elektr manbaning musbat qutbiga ulangan elektrod anod deb, manfiy qutbga ulangan elektrod esa katod deb ataladi. Elektrodli shisha idishga distillangan suv solamiz va kalitni ulaymiz. Bunda lampochka yonmaydi. Demak, distillangan suv elektr tokini o‘tkazmaydi. Kalitni uzamiz va idishdagi suvgaga osh tuzi ( $\text{NaCl}$ )ni solib, natriy xlorid eritmasini

hosil qilamiz. So'ngra kalitni ulasak, lampochka yonganini ko'ramiz. Demak, natriy xlorid eritmasi elektr tokini o'tkazar ekan. Bunga sabab nima?


Osh tuzi suvgaga solinganda, qutblangan suv molekulalari natriy xloridning kristall panjara tugunlarida joylashgan  $\text{Na}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlarini o'ziga tortadi. Natijada  $\text{NaCl}$  kristall panjarasi yemirilib, suvda tartibsiz erkin harakat qiluvchi  $\text{Na}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlari hosil bo'ladi (118-a rasm)



Kalit ulanganda  $\text{Na}^+$  ionlari katod tomon,  $\text{Cl}^-$  ionlari esa anod tomon harakatlanadi. Natijada zanjirdan tok o'ta boshlaydi. Eritmalarda moddalarning musbat va manfiy ionlarga ajralish jarayoni dissotsatsiya deyiladi. Shunday moddalar ham borki, qattiq holatda elektr tokini o'tkazmaydi, lekin eritilib, suyuq holatga o'tganda elektr tokini o'tkazadi.  $\text{Na}^+$   $\text{Cl}^-$   $\text{H}_2\text{O}$  Elektroliz. Faradeyning birinchi qonuni Suyuqlikda ionlarga ajraladigan va shu sababli elektr tokini o'tkazadigan moddalar elektrolitlar deb ataladi. Elektrolitda ionlar qancha ko'p bo'lsa, u elektr tokini shuncha yaxshi o'tkazadi.  $\text{NaCl}$  suvda eriganida u batamom  $\text{Na}^+$  va  $\text{Cl}^-$  ionlariga ajraladi. Natriy xloridning suvdagi eritmasi tokni yaxshi o'tkazuvchi elektrolit hisoblanadi. Shuningdek, boshqa tuzlar, ishqorlar va kislotalarning suvdagi eritmasi elektrolitlardir

#### *Elektroliz hodisasi*

Elektr zanjir kaliti ulanib, elektrolitda elektr maydon hosil qilinganda musbat ionlar katodga, manfiy ionlar anodga qarab harakatlanadi. Ionlar elektrodlarga yetib borgandan keyin o'z zaryadlarini elektrodlarga berib, neytral atomlarga aylanadi va cho'kma hosil qiladi. Elektrodlarga qancha ko'p ion borsa, ular sirtida shuncha ko'p modda yig'iladi. Quyidagi tajribani o'tkazaylik. Elektroldi shisha idish — elektrolit vannadagi suvga mis sulfat tuzi ( $\text{CuSO}_4$ )ni solib, elektrolit hosil qilaylik. Bunda u mis ( $\text{Cu}^{2+}$ ) va sulfat ( $\text{SO}_4^{2-}$ ) ionlarga ajraladi. Elektr zanjir kaliti ulanganda elektolitdan I tok o'ta boshlaydi (quyidagi rasmda ko'rsatilib o'tilgan)



Elektrolitdagi  $\text{Cu}^{2+}$  ionlari K katodga,  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari esa A anodga tomon harakat qilishi sababli katod sirtida Cu atomlari yig'ila boradi. Vaqt o'tishi bilan katoddagi mis qatlami

qalınlashadi. Tok uzoq vaqt o'tkazib turilsa, katodda sezilarli darajada toza mis moddasi ajralib chiqqanini kuzatish mumkin. Elektrolitdan tok o'tayotganda elektrodlarda modda ajralib chiqish hodisasi elektroliz deb ataladi. Ingliz fizigi M. Faradey qator tajribalarda har xil elektrolitlardan turli miqdorda tok o'tkazgan. Elektrodlarda ajralib chiqqan moddaning massasini o'lchash natijalariga asoslangan holda, 1833—1834-yillarda elektrolizning ikki qonunini kashf qildi

#### *Faradeyning birinchi qonuni*

1833-yilda ingliz olimi M. Faradey tajribalar asosida elektrolizning ikkita qonunini kashf qildi. M. Faradeyning elektroliz hodisasi uchun birinchi qonuni elektrodda ajralib chiquvchi modda massasi bilan elektrolitdan o'tuvchi zaryad miqdori orasidagi bog'lanishni o'rGANADI va u quyidagicha ta'riflanadi: Elektroliz vaqtida elektrodlarda ajralgan moddaning massasi elektrolit orqali o'tayotgan zaryad miqdoriga to'g'ri proporsionaldir.


Faradey o'tkazgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, elektrodlarda ajralib chiqqan modda massasi elektrodlar tomon harakat qilayotgan ionlar soniga, ya'ni elektrolitdan o'tayotgan zaryad miqdoriga bog'liq bo'ladi. Faradeyning birinchi qonuni elektroliz vaqtida ajralib chiqqan modda massasi bilan elektrolitdan o'tgan zaryad miqdori orasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bu qonun quyidagicha ta'riflanadi: Elektroliz vaqtida elektrodlarda ajralib chiqqan moddaning massasi elektrolitdan o'tgan zaryadning miqdoriga to'g'ri proporsionaldir:

$$m = kq, \quad (1)$$

bunda,  $m$  — ajralib chiqqan moddaning massasi;  $q$  — zaryad miqdori;  $k$  — proporsionallik koeffitsienti bo'lib, moddaning elektrokimyoiy ekvivalenti deb ataladi. Moddaning elektrokimyoiy ekvivalenti elektroliz vaqtida ajralib chiqqan har bir modda uchun har xildir. Agar (1) formulada  $q = 1 \text{ C}$  deb olinsa,  $k = m$  bo'ladi. Moddaning elektrokimyoiy ekvivalenti son jihatdan elektrolitdan bir kulon zaryad o'tganda ajralib chiqqan modda massasiga tengdir. Bu degani, moddaning elektrokimyoiy ekvivalenti  $1 \text{ kg/C}$  da o'lchanadi. Bu juda kichik birlik bo'lgani uchun amalda uning o'rniga  $1 \text{ mg/C}$  birligidan foydalilanadi.

Bunga asosan Faradeyning 1-elektroliz qonuni quyidagicha ta'riflanadi: Elektroliz vaqtida elektrodlarda ajralgan moddaning massasi tok kuchiga va uning elektrolitdan o'tish vaqtiga to'g'ri proporsionaldir.

$$q=It$$



Masalan, moddaning kimyoiy ekvivalenti kumush uchun  $1,118 \text{ mg/C}$  xlor uchun  $0,367 \text{ mg/C}$ , mis uchun  $0,329 \text{ mg/C}$ , nikel uchun  $0,304 \text{ mg/C}$ , alyuminiy uchun  $0,094 \text{ mg/C}$  qiymatga ega. (1) formulada  $q = I\Delta t$  ekanligini hisobga olsak, elektrodlarda ajralib chiqqan modda

massasi m ning elektrolitdan o‘tayotgan tok kuchi I ga va tokning o‘tish vaqtiga Δt ga bog‘liqlik ifodasini olish mumkin:

$$m = kI\Delta t. \quad (2)$$

Faradeyning birinchi qonuni tajribada quyidagicha tekshirib ko‘rilgan. Uchta elektrolit vannaga bir xil A, B va C elektrolitlar quyilib, ularning elektrodlari bir-biri bilan 120-rasmda ko‘rsatilgandek ulangan

Rasmga ko‘ra, A elektrolitdan o‘tayotgan  $I_A$  tok kuchi B va C 120-rasm elektrolitlardan o‘tayotgan  $I_B$  va  $I_C$  tok kuchlarining yig‘indisiga teng bo‘ladi. Agar (2) formula o‘rinli bo‘lsa, A, B va C elektrolitlar elektrodlarida ajralib chiqadigan moddalarning  $m_A$ ,  $m_B$  va  $m_C$  massalari  $m_A = m_B + m_C$  munosabatda bo‘lishi kerak.

#### *Masala yechish namunasi*

1. Mis kuporosining suvdagi eritmasidan iborat bo‘lgan elektrolitdan 12,5 C zaryad o‘tdi. Elektrolitga botirilgan katodda qancha miqdorda mis yig‘ilgan?

Berilgan	Formulasi	Yechilishi
$q=12,5 \text{ C}$ $k=0,329 \text{ mg/C}$ topish kerak? $m=?$	$m=kq$	$m=12,5 \text{ C} \cdot 0,329 \text{ mg/C} = 4,1125 \text{ mg}$ javob: 4,1125 mg

2. Elektroliz vaqtida katodda 10 mg miqdorda kumush yig‘ilishi uchun kumush ionlari bo‘lgan elektrolitdan qancha zaryad o‘tishi kerak?

Berilgan	Formula	Yechilishi
$m=10 \text{ mg}$ $k=1,118 \text{ mg/C}$	$m=k \cdot q$ $q=m/k$	$q=\frac{10 \text{ mg}}{1,118 \text{ mg/C}} = 8,94 \text{ C}$ Javob: 8,94 C
Topish kerak $q=?$		

#### REFERENCES

1. Saveliev I.V. Umumiy fizika kursi, t. 1-3, M, Nauka, 1989-92.
2. Saveliev I.V. Kurs obshey fiziki t. 1-3, M, Nauka, 1989-98.
3. Detlaf A.A., Yavorskiy B.M., Kurs fiziki, M.Visshaya shkola, 2007.
4. Trofimova T.I. Kurs fiziki M., Vishaya shkola, 2007.